TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 17-yanvar | 7-10-212-Q/25 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 6-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avtotransportda yo‘lovchi tashish xizmatlari sifatini baholash metodikasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 5-10-0-Q/25-son qarorining ijrosi haqida

Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 6-yanvardagi 5-10-0-Q/25-son qarori ijrosini ta’minlashda, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-, 10-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. Toshkent viloyati hokimining 2025 yil 6 yanvardagi 5-10-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avtotransportda yo‘lovchi tashish xizmatlari sifatini baholash metodikasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan avtotransportda yo‘lovchi tashish xizmatlari sifatini baholash metodikasi tasdiqlanganligi;

hududlarning jamoat transporti bilan ta’minlanganlik darajasi ko‘rsatkichlarini belgilash;

hududlarning jamoat transporti bilan ta’minlanganlik darajasi ko‘rsatkichlarini baholash orqali ularning jamoat transporti bilan ta’minlanganlik darajasini aniqlash;

avtotransportda yo‘lovchi tashish xizmatlari sifatini baholash;

avtotransportda yo‘lovchi tashish xizmatlari sifati bo‘yicha hududlarning reytinglarini belgilash mezoni yo‘lga qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (S.Mirsagatov) 2025-yil 10-dekabrga qadar reyting natijalarini holda, aholiga transport xizmatlarini ko‘rsatish reytingini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqsin hamda viloyat hokimligiga kiritsin.

Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan zarur bo‘lgan mablag‘lar Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ajratilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**